

MAVZU: YALPI TALAB YALPI TAKLIF MODELI

Urinboyeva Yulduz Pirnazarovna - i.f.f.dok., dotsent

Murodimov Javohir Abdumannon o'g'li

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Yalpi talab yalpi taklif modeli haqida so'z yuritilgan.*

Аннотация: *Эта статья о модели совокупного спроса и совокупного предложения..*

Abstract: *This article is about the aggregate demand aggregate supply model.*

Kalit so'zlar: *Yalpi talab yalpi taklif modeliga umumiy tavsif. Yalpi talab tushunchasi va grafigi.*

Ключевые слова: *Общее описание модели совокупного спроса-совокупного предложения. Совокупный спрос и график.*

Keywords: *General description of the aggregate demand-aggregate supply model. Aggregate demand and its graph.*

Har qanday bozorda vaziyat talab va taklif o'rtasidagi nisbatga bog'liq bo'lib, ular hajmlarining o'zgarishi baholarning o'zgarishini keltirib chiqaradi. Baholarning o'zgarishi esa talab va taklif hajmlariga ta'sir ko'rsatadi. Bunday o'zaro bog'liqlik umumlashtirilgan holda ko'rib chiqiladigan milliy bozorga ham ta'luqlidir.

Alohida tovarlar va xizmatlar bozoridagi bunday bog'liqlik talab va taklif modeli yordamida tadqiq qilinishini yaxshi bilamiz. Ammo makroko'lamda milliy ishlab chiqarish hajmining o'zgarishi bilan birga baholar umumiy darajasining o'zgarishi o'rtasida bog'liqlikni tadqiq qilish, nima uchun milliy ishlab chiqarish hajmi ayrim davrlarda barqaror o'sishi, ba'zi davrlarda esa pasayib ketishni izohlab berish uchun bu modellardan foydalanib bo'lmaydi.

Bu vazifani bajarish uchun yalpi talab - yalpi taklif (AD-AS aggregate demand-aggregate supply) modelidan foydalanamiz.

Bu modelda yalpi taklif, baholarning umumiy darajasi kabi agregat ko'rsatkichlaridan foydalaniladi.

Makroiqtisodiyotda AD-AS modeli ishlab chiqarish hajmlari va baholar darajalarining tebranishlarini hamda ular o'zgarishining oqibatlarini o'rganish uchun bazaviy model bo'lib hisoblanadi. AD-AS modeli yordamida davlat iqtisodiy siyosatining turli variantlari tasvirlab berilishi mumkin.


Yalpi talab – uy xo'jaliklari, korxonalar, hukumat va chet ellik xaridorlarning baholarning ma'lum darajasida iqtisodiyotda ishlab chiqarilgan yakuniy tovarlar va xizmatlarning umumiy hajmiga bo'lgan talabidir.

Yoki boshqacha qilib aytganda yalpi talab iqtisodiyotda ishlab chiqarilgan yakuniy tovarlar va xizmatlarni sotib olishga qilingan umumiy harajatlar yig'indisidir. Formula ko'rinishida yalpi talabni quyidagicha tasvirlash mumkin:

$$AD = C + I + G + X_n.$$

Baholar darajasi va talab qilingan milliy mahsulot hajmi o'rtasidagi bog'liqlikni ifoda etuvchi chiziq yalpi talab egri chizig'i deb ataladi. Buni chizma ko'rinishida tasvirlash mumkin

5.1-rasmdan ko'rinib turibdiki, yalpi talab egri chizig'i doimo pastga va o'ngga suriladi



5.1-rasm. Yalpi talab egri chizig'i

Bunday surilishning sababi har xil. Ma'lumki, alohida olingan tovarlar bozorida talab egri chizig'ining surilishiga asosan daromad samarasi va o'rinbosar tovarlar sabab bo'ladi. Ayrim tovarlarning bahosi pasayganda, iste'molchilarning pul

daromadlari ko'proq mahsulot sotib olish imkonini beradi (daromad samarasi). Shuningdek, baho pasayganda iste'molchi ushbu tovarni ko'proq boshqa sotib oladi, chunki u boshqa tovarlarga nisbatan arzonroq bo'ladi (o'rnini bosadigan tovarlar).

Milliy bozorda AD-egri chizig'ining traektoriyasini, ya'ni uning quyiga egilganligini, avvalo pulning miqdoriy nazariyasi tenglamasi yordamida izohlash mumkin:

$$M V = Y P$$

Bu yerda: M – muomaladagi pul miqdori; V – pulning aylanish tezligi;

P – iqtisodiyotdagi baholar darajasi (baholar indeksi); Y – talab qilinayotgan real ishlab chiqarish hajmi.

Bu tenglamadan:

$$P = M V / Y \text{ va } Y = M V / P$$

tenglamalarni keltirib chiqaramiz. Bu tenglamalardan ko'rinadiki, baholar darajasi qancha oshsa, real YaIM hajmiga talab shuncha past bo'ladi, ya'ni pul massasi (M) va uning aylanish tezligi (V) o'zgarmas bo'lsa baholar darajasi va yalpi talab o'rtasida teskari bog'liqlik mavjud bo'ladi

Test :

1. Yalpi talab egri chizig'ining o'ngga siljishiga qaysi omil sabab bo'lishi mumkin?

- A) Foiz stavkalarining oshishi
- B) Aholi daromadlarining kamayishi
- C) Hukumatning xarajatlarni ko'paytirishi
- D) Korxonalar investitsiyalarining qisqarishi

2. Agar markaziy bank pul massasini oshirsa, bu yalpi talabga qanday ta'sir qiladi?

- A) Yalpi talab oshadi, chunki foiz stavkalari kamayadi
- B) Yalpi talab kamayadi, chunki inflyatsiya oshadi
- C) Yalpi talab o'zgarmaydi, chunki ishlab chiqarish darajasi doimiy
- D) Yalpi talab pasayadi, chunki eksport kamayadi

3. Agar yalpi talab egri chizig'i o'ngga siljisa, qisqa muddatli va uzoq muddatli

natijalar qanday bo'ladi?

A) Qisqa muddatda narxlar va ishlab chiqarish hajmi oshadi, uzoq muddatda faqat narxlar oshadi

B) Qisqa muddatda narxlar pasayadi, uzoq muddatda ishlab chiqarish hajmi oshadi

C) Qisqa muddatda ishlab chiqarish kamayadi, uzoq muddatda narxlar pasayadi

D) Qisqa muddatda hech qanday o'zgarish bo'lmaydi, uzoq muddatda yalpi talab pasayadi

4. Kutilmagan soliq stavkalarining oshishi yalpi talabga qanday ta'sir qiladi?

A) Yalpi talab oshadi, chunki davlat ko'proq daromad oladi

B) Yalpi talab kamayadi, chunki iste'mol va investitsiyalar qisqaradi

C) Yalpi talab o'zgarmaydi, chunki soliq faqat davlat daromadlariga ta'sir qiladi

D) Yalpi talab dastlab oshadi, keyin barqarorlashadi

5. Agar yalpi talabning pasayishi kuzatilsa, bu holatda davlat qanday choralar ko'rishi mumkin?

A) Foiz stavkalarini oshirish

B) Soliq yukini kamaytirish va davlat xarajatlarini oshirish

C) Pul massasini qisqartirish

D) Eksportga bojxona to'lovlarini oshirish

6. "Boylik effekti" deb nomlangan mexanizm yalpi talabni qanday tushuntiradi?

A) Narxlar oshganda real boylik kamayadi va iste'mol qisqaradi

B) Narxlar oshganda aholi boyligi ortadi va yalpi talab oshadi

C) Soliqlar oshganda boylik kamayadi va yalpi talab qisqaradi

D) Hukumat xarajatlari oshganda boylik ortadi va yalpi talab o'sadi

7. Investitsiyalarning oshishi yalpi talabga qanday ta'sir qiladi?

A) Yalpi talab o'ngga siljiydi, chunki ishlab chiqarish quvvati kengayadi

B) Yalpi talab chapga siljiydi, chunki iste'mol qisqaradi

C) Yalpi talab o'zgarmaydi, chunki investitsiyalar yalpi taklifga ta'sir qiladi

D) Yalpi talab pasayadi, chunki narxlar oshadi

8. Agar mamlakat eksporti oshsa, bu yalpi talabga qanday ta'sir qiladi?

A) Yalpi talab oshadi, chunki sof eksport ortadi

B) Yalpi talab kamayadi, chunki import ham oshadi

C) Yalpi talab o'zgarmaydi, chunki eksport yalpi taklifga ta'sir qiladi

D) Yalpi talab qisqaradi, chunki valyuta kursi pasayadi

9. Agarda iqtisodiyot retsessiyaga ketsa, yalpi talab qanday o'zgaradi va davlat qanday choralar ko'rishi lozim?

A) Yalpi talab oshadi, soliq yukini oshirish va davlat xarajatlarini qisqartirish lozim

B) Yalpi talab kamayadi, davlat byudjet taqchilligini kamaytirish uchun investitsiyalarni qisqartirishi kerak

C) Yalpi talab kamayadi, soliq yukini pasaytirish va pul massasini oshirish lozim

D) Yalpi talab o'zgarishsiz qoladi, faqat yalpi taklif ta'sirlanadi

10. Quyidagilardan qaysi biri yalpi talabga ta'sir qiluvchi tashqi omil hisoblanadi?

A) Ish haqi miqdori

B) Pul-kredit siyosati

C) Global iqtisodiy inqiroz

D) Iste'molchilarning shaxsiy jamg'armalari

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

1. N. Gregory Mankiw Macroeconomics. 8 th edition. Harvard University. (NY Worth Publishers 2013) :285

2. Iqtisodiy Infrastruktura va Bozor Turmush Tarzlarini o'zgartirish" - Douglas

C. North: Bu kitob iqtisodiy tizim va bozorlar orasidagi munosabatlarni, tarixgar